



Dilnavoz O. TADJIBAYEVA,
Dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent, O'zbekiston.
E-mail: d.tojiboyeva@tsul.uz, ORCID: 0000-0003-3990-1220

TDYU dotsenti, PhD X.Oblomuradova taqrizi asosida

ISSUES OF DEVELOPING MEDIA LITERACY AMONG YOUNG PEOPLE IN THE CONTEXT OF DIGITAL UZBEKISTAN

Annotation

"The article analyzes the theoretical, institutional, and practical aspects of media literacy development in Uzbekistan amidst digital transformation". The author proposes an original definition of the concept of "media literacy". A comparative analysis is conducted of the international scientific literature, the approaches of UNESCO and the OECD to the development of digital competencies, as well as the reforms implemented in the field of digital development in the Republic of Uzbekistan. Based on the integration of international experience and national practice, the article develops practical recommendations aimed at fostering media literacy among young people.

Key words: Media literacy, Digital Uzbekistan, digital transformation, digital competence, critical thinking, fact-checking, digital security, artificial intelligence literacy.

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕДИАГРАМОТНОСТИ У МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ «ЦИФРОВОГО УЗБЕКИСТАНА»

Аннотация

В статье проанализированы теоретические, институциональные и практические аспекты формирования медиаграмотности в Узбекистане в условиях цифровой трансформации. Предложено авторское определение понятия «медиаграмотность». Проведен сравнительный анализ международной научной литературы, подходов UNESCO и OECD к развитию цифровых компетенций, а также реформ, реализуемых в сфере цифрового развития Республики Узбекистан. В статье на основе интеграции международного опыта и национальной практики разработаны практические рекомендации, направленные на формирование медиаграмотности у молодежи.

Ключевые слова: Медиаграмотность, Цифровой Узбекистан, цифровая трансформация, цифровые компетенции, критическое мышление, фактчекинг, грамотность в области ИИ.

RAQAMLI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MEDIASAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekistonda mediasavodxonlikni shakllantirishning nazariy, institutsional va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. "Mediasavodxonlik" tushunchasiga mualliflik ta'rifi berilgan. Xalqaro ilmiy adabiyotlar, UNESCO va OECDning raqamli kompetensiyalar bo'yicha yondashuvlari hamda O'zbekistonda raqamli rivojlanish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar qiyosiy o'rganilgan. Maqolada xalqaro tajriba va milliy amaliyot uyg'unligi asosida yoshlarda mediasavodxonlikni shakllantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlari: Mediasavodxonlik, raqamli O'zbekiston, raqamli transformatsiya, raqamli kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash, faktcheking, raqamli xavfsizlik, sun'iy intellekt savodxonligi.

Kirish. Globallashuv va raqamlashish tendensiyalari tufayli ijtimoiy hayot jiddiy transformatsiyaga uchramoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi yoshlarning kundalik hayoti, axborot olish usullari, dunyoqarashi va ma'naviy-axloqiy xatti-harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday yoshlarda mediasavodxonlikni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: «Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi», deb ta'kidlaydi[1]. Mazkur yondashuv yoshlarda mediasavodxonlikni shakllantirish, ularning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda axborot xavfsizligini ta'minlashning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayonlarini tizimli tashkil etish va aholining raqamli ko'nikmalarini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini

tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni bilan belgilangan ustuvor vazifalarga to'liq hamohangdir[2]. Mazkur strategik hujjatda jamiyat va iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish barcha sohalar qatori, xavfsiz raqamli muhitni yaratish hamda aholining raqamli savodxonligini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy media makonda sun'iy intellekt texnologiyalari va kibertahdidlarga qarshi tura oladigan yangi integral mediasavodxonlik kompetensiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Zamonaviy raqamli makon faqatgina axborot almashish vositasi bo'lmay, balki generativ sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari, algoritmlar va kiber-tahdidlar integratsiyalashgan murakkab tizimga aylandi. Bugungi kunda yoshlar va keng jamoatchilik daryodek oqib kelayotgan axborot oqimi ichida haqiqiy va sun'iy ravishda yaratilgan (deepfake, neyrotarmoq matnlari) kontentni ajratishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalqaro miqyosda mediasavodxonlik sohasidagi fundamental yondashuvlardan biri UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Media and Information Literacy (MIL): Policy and Strategy Guidelines" hamda "Media and Information Literacy Curriculum for Educators and Learners" konsepsiyalarida o'z ifodasini topgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, mediasavodxonlik axborotni izlash, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va etik me'yorlarga rioya qilgan holda tarqatish kompetensiyalarining o'zaro uyg'un tizimini ifodalaydi [3]. European Commission tomonidan ishlab chiqilgan "The Digital Competence Framework for Citizens" (DigComp 2.2) raqamli kompetensiyalar modeli axborot va ma'lumotlar savodxonligi, raqamli xavfsizlik, raqamli muloqot, hamkorlik hamda raqamli kontent yaratish ko'nikmalarini raqamli kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari sifatida belgilaydi [4].

UNESCO media va axborot kompetensiyalarini integral holda ko'rsa, DigComp raqamli kompetensiyalarga urg'u beradi. OECDning Skills Outlook hamda raqamli transformatsiyaga bag'ishlangan tahliliy hisobotlarida tanqidiy fikrlash, raqamli ko'nikmalar va mediasavodxonlikni rivojlantirish inson kapitali sifati hamda jamiyatning raqamli barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilgan [5]. Rene Hobbs o'zining "Digital and Media Literacy: A Plan of Action" hamda "Create to Learn" asarlarida mediasavodxonlikni axborotni qabul qilish, tahlil qilish, baholash, yaratish va samarali muloqot qilish kompetensiyalarining yaxlit tizimi sifatida talqin qiladi [6]. Sonia Livingstonning "Media Literacy and the Challenge of New Information and Communication Technologies" hamda raqamli media bo'yicha ilmiy tadqiqotlarida raqamli muhitda voyaga yetayotgan yoshlar uchun mediasavodxonlik nafaqat raqamli texnologiyalardan foydalanish, balki axborot xavflarini anglash, media mazmunini tanqidiy baholash va mas'uliyatli raqamli fuqarolikni shakllantirish vositasi ekanligi ilmiy asoslangan [7]. O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yoshlarning axborot madaniyatini yuksaltirish, internetdan xavfsiz foydalanish, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida mediasavodxonlikni shakllantirishga ta'sir etuvchi institutsional va ijtimoiy omillar o'zaro bog'liqligini tahlil qilishda tizimli tahlil usulidan foydalanildi. Bu usul raqamli ta'lim muhiti, davlat siyosati va raqamli platformalarning mediasavodxonlikka ta'sirini yaxlit tizim sifatida baholash imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida UNESCOning Media and Information Literacy (MIL) konsepsiyasi, European Commissionning DigComp 2.2 raqamli kompetensiyalar modeli hamda OECDning raqamli kompetensiyalar bo'yicha yondashuvlarni O'zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari bilan taqqoslandi. Shuningdek, mavzuga oid milliy va xorijiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish orqali mediasavodxonlikning zamonaviy jamiyatdagi o'rni yoritildi.

Bundan tashqari, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya kabi metodlardan foydalanildi. Mazkur metodlar yordamida yoshlarning media makondagi axborot iste'moli madaniyati va mediasavodxonlikni shakllantirish muammolari o'rganildi. Shuningdek, mediasavodxonlikning mazmuni, tarkibiy qismlarini aniqlash hamda raqamli O'zbekiston sharoiti uchun amaliy ahamiyatga ega bolgan ilmiy takliflarni ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Raqamli O'zbekiston sharoitida yoshlarning axborot oqimi bilan munosabatini to'g'ri tashkil etish soha mutaxassislaridan zamonaviy yondashuvlarni talab qilmoqda. G'arb mediata'limi asoschisi L.Mastermanning fikricha, mediasavodxonlikning bosh maqsadi – insonlarda medianing manipulyativ kuchini anglagan holda axborot makonida o'z-o'zini himoya qila olish, ya'ni "tanqidiy avtonomiya"ni shakllantirishdan iboratdir [11].

O'z navbatida, raqamli davr tadqiqotchisi A. Gutyerres Martin an'anaviy savodxonlik chegarasini kengaytirib, zamonaviy

mediasavodxonlik tarkibiga nafaqat matnlarni o'qish yoki tahlil qilish, balki multimedia vositalari yordamida yangi raqamli kontent yaratish va masofaviy axborotlarni mustaqil baholay olish ko'nikmalarini ham kiritadi [12]. Mahalliy tadqiqotchilar ham raqamli makonda yoshlar mediasavodxonligini oshirish mexanizmlarini axborotni faqat qabul qilish emas, balki uni mas'uliyatli saralash komponenti bilan bog'lamoqdalar [13, 16].

Xalqaro tajriba tahliliga ko'ra, UNESCO mediasavodxonlikni demokratik jamiyatda fuqarolarning axborot bilan ongli munosabatini ta'minlovchi asosiy kompetensiya sifatida baholaydi, European Commission esa uni raqamli kompetensiyalar tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. OECDning so'nggi tahlillarida tanqidiy fikrlash, algoritmlarni anglash va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali sifatini belgilaydigan muhim omillar sifatida qayd etilgan. Bu yondashuvlar o'rtasida umumiy jihat sifatida axborotni tanqidiy baholash va raqamli muhitda mas'uliyatli faoliyat yuritish kompetensiyalariga ustuvor ahamiyat berilishi kuzatiladi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, mediasavodxonlik – shaxsning raqamli axborot muhitida turli media manbalar orqali tarqatilayotgan axborotni tanqidiy tahlil qilish, uning ishonchligini baholash, sun'iy intellekt vositasida yaratilgan kontentni ajrata olish, axborot xavfsizligi talablariga rioya etish va raqamli muloqotda mas'uliyatli ishtirok etishni ta'minlovchi integral kompetensiyalar majmuasidir.

Mediasavodxonlik komponentlari quyidagilardan iborat:

Tanqidiy tahlil: Axborot oqimining ko'payishi sharoitida shaxsning feyk (yolg'on) xabarlar, manipulyatsiya va targ'ibot (propaganda) usullarini aniqlay olish qobiliyati. Bu jarayon axborotning birlamchi manbasi, ishonchligi va faktlarning o'zaro mosligini tekshirishni ko'zda tutadi.

Sun'iy intellekt kontentini ajratish (SI savodxonligi): Zamonaviy media muhitning eng yangi determinanti bo'lib, neyrotarmoqlar tomonidan yaratilgan matn, tasvir, audio va dipfeyk (deepfake) video mahsulotlarini ajrata olish ko'nikmasidir. Bu shaxsga reallik va generativ kontent o'rtasidagi farqni anglash imkonini beradi.

Axborot xavfsizligi talablariga rioya etish: Kibergigiyena qoidalariga amal qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, fishing (phishing) va kiberhujumlardan ogoh bo'lish ko'nikmasi. Raqamli muhitda shaxsiy daxlsizlikni saqlashning huquqiy va texnik jihatlarini bilishni anglatadi.

Mas'uliyatli raqamli muloqot va integral kompetensiya: Netiket (tarmoq etikasi) qoidalariga rioya qilish, kiberbulling (onlayn bezorilik) va nafrat tilidan (hate speech) voz kechish. Bu shunchaki axborotni iste'mol qilish emas, balki uni yaratish va tarqatishda ham ijtimoiy-huquqiy mas'uliyatni his qilish darajasidir.

Olib borilgan tadqiqotlar va nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy mediasavodxonlik tushunchasi bugungi kun raqamli realligi talablariga qisman javob bermoqda. Biz taklif etgan "integral kompetensiyalar majmuasi" sifatidagi yangi yondashuv raqamli muhitda shaxs xavfsizligini ta'minlashning to'rtta asosiy ustuniga tayanadi. O'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalar va test sinovlari natijasiga ko'ra, yoshlarning 64% qismi ijtimoiy tarmoqlardagi oddiy feyk xabarlarini farqlay olsalarda, ularning atigi 18% qismi sun'iy intellekt (AI) yordamida yaratilgan vizual yoki matnli kontentni (deepfake, generativ matnlar) aniqlash ko'nikmasiga ega.

Ushbu ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy axborot muhitda manipulyatsiya ko'lamining ortishi to'g'ridan-to'g'ri sun'iy intellekt savodxonligi (AI literacy) pastligi bilan bog'liq.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida mediasavodxonlik yoshlarning raqamli muhitda xavfsiz, ongli va mas'uliyatli faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim kompetensiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining kuchayishi, dezinformatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalarining keng qo'llanilishi mediasavodxonlikning mazmunini kengaytirish va uni ta'lim

hamda tarbiya tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qarashni talab etmoqda.

Raqamli O'zbekiston sharoitida yoshlarda mediasavodxonlikni shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari.

1-Jadval.

Muammo	Sababi	Taklif etilayotgan yechim
Axborot manipulyatsiyasi	Faktcheking ko'nikmasining pastligi	Ta'lim jarayonida faktlarni tahlil qilish amaliyotini yo'lga qo'yish
AI orqali yaratilgan kontentni ajrata olmaslik	AI bo'yicha bilimlarning yetishmasligi	Sun'iy intellekt savodxonligi kurslarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish
Raqamli qaramlik	Cheksiz kontent	Taym-menejment konikmasini shakllantirish
Fishing, kiberbulling	Raqamli muloqot madaniyatining pastligi	Modullarga raqamli etika mavzisini kiritish
Shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi	Kiberxavfsizlik bo'yicha bilimlarning yetishmasligi	Virtual olamda himoyalash ko'nikmalarini shakllantirish

Manba: UNESCO, OECD, DigComp 2.2 va milliy tahlillar asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalariga tayanib quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun – mediasavodxonlik asoslarni gumanitar va ijtimoiy fanlarga integratsiya qilish orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va axborotni to'g'ri baholash ko'nikmalarini erta bosqichdan shakllantirish.

Oliy ta'lim muassasalari uchun – “Media va axborot savodxonligi” o'quv moduli yoki fanlararo kurslarni joriy etish, ularning mazmuniga faktcheking (ma'lumot va faktlarni tekshirish), AI savodxonligi va raqamli madaniyatga oid mavzularni kiritish.

Davlat organlari va yoshlar siyosati institutlari uchun – raqamli muhitda bulling, kiberjinoyatchilik va nafrat tiliga (haqoratlar) qarshi kurashish maqsadida yoshlar o'rtasida tarmoq madaniyati (netiket) qoidalarini targ'ib qiluvchi ijtimoiy loyihalarni yo'lga qo'yish.

Ilmiy tadqiqotlar uchun – mediata'lim sohasida an'anaviy usullardan voz kechib, tarkibiga sun'iy intellekt imkoniyatlari, kiberigiyena (raqamli xavfsizlik) va raqamli madaniyat qoidalarini qamrab olgan yangi “integral kompetensiyalar

majmuasi”ni (zamonaviy mediasavodxonlikni) tizimli shakllantirish metodologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy axborot makonida shunchaki axborotni iste'mol qilish ko'nikmasi etarli emas. Raqamli muhitning integrallashuvi va sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining rivojlanishi an'anaviy mediasavodxonlik tushunchasini tubdan o'zgartirishni talab etmoqda. Biz taklif etgan integral kompetensiyalar majmuasi shaxsning nafaqat axborotni tanqidiy tahlil qilish, balki neyrotarmoqlar kontentini farqlash, kiberxavfsizlikka rioya etish va raqamli etika normalariga amal qilish darajasini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, Raqamli O'zbekiston sharoitida yoshlarda mediasavodxonlikni shakllantirish faqat ta'lim sohasining emas, balki davlat boshqaruvi, axborot siyosati, kiberxavfsizlik va fuqarolik jamiyatining ham ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada taklif etilgan konseptual yondashuv va amaliy tavsiyalar yoshlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, axborot xavfsizligini mustahkamlash hamda raqamli jamiyatda mas'uliyatli fuqarolik madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi ““Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son Farmoni.
3. UNESCO. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. Paris: UNESCO, 2023.
4. European Commission. The Digital Competence Framework for Citizens (DigComp 2.2). Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022.
5. OECD. OECD Digital Economy Outlook 2024. Volume 2: Strengthening Connectivity, Innovation and Trust. Paris: OECD Publishing, 2024.
6. Renee Hobbs. Mind Over Media: Analyzing Contemporary Propaganda. New York: W.W. Norton, 2021.
7. Sonia Livingstone. Children and Digital Futures. London, 2022.
8. Shermanova F. Media Literacy of Students Based on the Development Trends of Modern Information and Communication Technologies Improvement. ACTA NUUZ, 2024, 1(1.9), 232–234.
9. Xasanov X. The Decision-Making Role of Media Literacy and Education Directed to It in the Life of Society. ACTA NUUZ, 2024, 1(1.10.1), 232–233.
10. Abdikarimov K. Media Literacy as a Means of Protecting Uzbekistan's Media Environment from Disinformation. International Scientific Journal of Media and Communications in Central Asia, 2024, №6.
11. Masterman L. Teaching the Media (Медиани ўқитиш). – London: Routledge, 1985. – 364 p.
12. Gutiérrez-Martín A., & Tyner, K. Media Literacy in Multiple Contexts (Кўп қиррали контекстларда медиасаводхонлик) // Comunicar. – 2012. – № 19 (38). – P. 10-18.
13. Ismoilov N.B. Zamonaviy yoshlar mediasavodxonligining mexanizmlarini shakllantirish komponentlari // Biruni Journal. – Toshkent, 2025. – № 2. – B. 42-49.
14. Oblomuradova X. Yoshlarning Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati: ijtimoiy-falsafiy tahlil //Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. – 2026. – T. 3. – №. 6. – C. 84-88.
15. Oblomuradova K.H.N. Information threats in social networks //Journal of social sciences. – 2025. – T. 5. – №. 3. – C. 16-18.
16. N. Oblomuradova, X. (2026). Internet madaniyatining zamonaviy transformatsiyasi: ijtimoiy-falsafiy tahlil. «ACTA NUUZ», 1(1.10), 167–169.